



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **NIZOMIY GANJAVIYNING “ISKANDARNOMA” DOSTONI (“IQBOLNOMA”)DA ILM VA IRFON MASALALARINING BADIY TALQINI**

**Otayarova Umida Bolibek qizi**

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, PhD, dotsent

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Nizomiy Ganjaviyning “Panj ganj” majmuasiga kiruvchi “*Iskandarnoma*” dostoni, xususan, uning “*Iqbolnoma*” qismida ilgari surilgan ilm, irfon va ma’naviy kamolot masalalari tahlil etiladi. Asarda Iskandarning hakim va nabiy sifatidagi badiiy talqini yoritilib, turli hikoyatlar orqali ilmning inson hayotidagi ustuvor o‘rni ochib beriladi. “Chiniy kanizak-la Arshimedis afsonasi” hamda “Moriyayi Qibtiya afsonasi” misolida ilm va nafs, ilm va husn o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar badiiy jihatdan talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari Nizomiy Ganjaviy ilm va irfonni inson kamolotining asosiy omili sifatida ulug‘laganini hamda Sharq ma’rifiy tafakkurining muhim g‘oyalarini badiiy shaklda ifodalaganini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Nizomiy Ganjaviy, *Iskandarnoma*, *Iqbolnoma*, ilm va irfon, Sharq adabiyoti.

## **ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ НАУКИ И ИРФАНА В ПОЭМЕ НИЗАМИ ГЯНДЖЕВИ «ИСКАНДЕР-НАМЕ» («ИКБОЛ-НАМЕ»)**

**Отаярова Умида Болибек кизи**

Международный университет туризма и культурного наследия «Шёлковый путь», PhD, доцент

### **Аннотация**

В данной статье анализируются проблемы знания, ирфана и духовного совершенствования, представленные в поэме «*Искандер-наме*», входящей в цикл «*Пять сокровищ*» Низами Гянджеви, в частности в её части «*Икбол-наме*». Рассматривается художественная интерпретация образа Искандера как мудреца и пророка, а также раскрывается приоритетная роль знания в жизни человека через систему поучительных рассказов. На примере легенд «*О китайской наложнице и Архимедесе*» и «*О Марии Коптской*» раскрываются противоречия между знанием и нафсом, знанием и красотой. Результаты исследования показывают, что Низами Гянджеви возвеличивает знание и ирфан как основу человеческого совершенства и художественно воплощает важнейшие идеи восточной просветительской мысли.

**Ключевые слова:** Низами Гянджеви, *Искандер-наме*, *Икбол-наме*, знание и ирфан, восточная литература.

## **THE ARTISTIC INTERPRETATION OF KNOWLEDGE AND MYSTICAL WISDOM IN NIZAMI GANJAVI'S ISKANDARNAMA (IQBALNAMA)**

**Otayarova Umida Bolibek qizi**

Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage, PhD, Associate Professor

### **Abstract**

This article examines the issues of knowledge, mystical wisdom (irfan), and spiritual perfection presented in Nizami Ganjavi's *Iskandarnama*, particularly in its *Iqbalnama* section, which forms part of the *Khamsa* (Five Treasures). The study explores the artistic interpretation of Alexander as both a sage and a prophet and highlights the central role of knowledge in human life through a series of instructive narratives. Using the tales of *The Chinese Maiden* and *Archimedes and Maria the Copt*, the article reveals the conflicts between knowledge and desire, as well as knowledge and beauty. The findings demonstrate that Nizami Ganjavi glorifies knowledge and mystical wisdom as the foundations of human perfection and artistically conveys key ideas of Eastern intellectual and spiritual thought.

**Keywords:** Nizami Ganjavi, *Iskandarnama*, *Iqbalnama*, knowledge and mystical wisdom, Eastern literature.

Sharq mumtoz adabiyotida ilm va ma’rifat masalasi inson kamolotining asosiy mezonlaridan biri sifatida talqin qilingan. Ayniqsa, Nizomiy Ganjaviy ijodida ilm ilohiy haqiqatga eltuvchi ma’naviy qudrat sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning *Iskandarnoma* dostoni Sharq adabiyotidagi Iskandar haqidagi asarlar orasida o‘zining falsafiy-irfoniy mohiyati bilan alohida ajralib turadi. Dostonning “*Sharafnoma*” qismida Iskandarning jahongirlik faoliyati tasvirlangan bo‘lsa, “*Iqbolnoma*”da uning ruhiy-ma’naviy kamoloti,

hakimlar bilan suhbatlari hamda ilm-falsafaga munosabati markaziy o‘ringa chiqadi. Shu bois “Iqbolnoma”ni nafaqat tarixiy-sarguzasht dostoni, balki falsafiy-irfoniy asar sifatida ham baholash mumkin. Dostonning “Iqbolnoma” qismida Iskandar yetti hakim bilan olamning yaratilishi, inson mohiyati, ilm va haqiqat masalalari yuzasidan munozaralar olib boradi. Nizomiy bu ilmiy-falsafiy suhbatlar orqali ilmni insoniyat taraqqiyotining asosiy kuchi sifatida ulug‘laydi. Dostonda keltirilgan hikoyatlar ham aynan shu g‘oyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Nizomiy Ganjaviyning ushbu dostoni shu kunga qadar ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Yevgeniy Eduardovich Bertels, Aziz Qayumov, X.To‘ran, M.Hamidova, Y.Azimov, Najmiddin Komilov kabilar “Iskandarnoma”larni tadqiq qilgan. Jumladan, Y.E.Bertels Iskandar obrazining genetik tarixiga e‘tibor qaratib, “Iskandarnoma”larni ko‘proq siyosiy, donishmandlik majmuyi va davr mafkurasini aks ettiruvchi asarlar sifatida tekshirgan. A.Qayumov dostonning g‘oyaviy mazmuni, badiiyati va obrazlari xarakteristikasiga oid kuzatishlarini bayon qilgan. X.To‘ran va M.Hamidova “Saddi Iskandariy” dostoni matnini tadqiq etib, uning tanqidiy matnini tuzganlar. Y.Azimov “Xiradnomayi Iskandariy” va “Saddi Iskandariy” dostonlarini qiyoslashga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida ko‘proq Jomiy dostonini tahlil etgan. N.Komilov “Saddi Iskandariy”ning ilova bo‘limlari — nazariy masala, hikoya va hikmatlarning so‘fiyona mohiyatini tadqiq etgan. F.Boynazarov Iskandar Zulqarnayn obrazining G‘arb va Sharq adabiyotlaridagi evolyutsiyasi haqida umumiy fikrlarni bayon qilgan bo‘lsa, F.Sulaymonova qadimiy va o‘rta asr madaniy aloqalari doirasida dostonni tahlil qilgan. A.Erkinov doston asosida Navoiyning peyzaj yaratish, I.Salimov obraz yaratish, D.Yusupova esa mazmun va ritmni uyg‘unlashtirish mahoratiga e‘tibor qaratgan. A.Hayitov Navoiy “Xamsa”sini nasriylashtirish masalasini o‘rganish mobaynida, O.Abdullayev Xusrav va Navoiy “Xamsa”larining umumiy qiyosi doirasida, I.Avjiy Iskandarnomalarning turkiy tarmog‘i, tadqiqi va manbalariga oid kuzatishlari munosabati bilan, U.Jo‘raqulov esa xronotop poetikasini “Xamsa”ga tatbiq etish asnosida Iskandar haqidagi dostonlarni o‘rgangan. O‘zbek adabiyotshunosligida Nizomiy ijodi bilan bog‘liq ishlar, shoir merosining salmog‘i va ko‘lami nazarda tutilsa, yetarli emas. Navoiy ijodi va tadqiqida adabiy ta‘sir hamda an‘ana masalalari muhim o‘rin tutar ekan, Nizomiy ijodini jiddiy tadqiq etish dolzarb bo‘lib qolaveradi.

Maqola mazmunini yoritishda tarixiy-qiyosiy, germeneytik hamda struktur-semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Asosiy qism.** Nizomiy Ganjaviy “Panj ganj” tarkibidagi dostonlari orqali Sharq adabiyotida “Xamsa” yozish an‘anasini boshlab bergan ijodkor hisoblanadi. Adibning Iskandarnoma dostoni ikki qismdan iborat bo‘lib, “Sharafnoma” qismida Iskandarning jahongirliги borasida fikr yuritilsa, “Iqbolnoma”da Iskandar hakim va nabi sifatida tasvirlanadi. Shu bois dostonning bu qismida irfoniy jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Dostonlar garchi bitta mavzuda yozilgan bo‘lsa-da, “Sharafnoma” hamda “Iqbolnoma” muqaddima va xotima boblari, bag‘ishlovlarga ega bo‘lgan alohida dostonlardir. “Sharafnoma” “Haft paykar”dan oldin tugallanib, alohida doston sifatida mashhur bo‘lgan, so‘ngra esa shoir uni qayta tahrirdan o‘tkazib, “Iqbolnoma” bilan to‘ldirgan [5, 23]. “Iqbolnoma”da ham alohida hikoyat tarzida berilmasa-da, umumiy syujetga bog‘liq ravishda quyidagi hikoyatlarni uchratishimiz mumkin:

1. “Dono cho‘pon-la Iskandar dostoni”
2. “Chiniy kanizak-la Arshimedis afsonasi”
3. “Moriyayi Qibtia afsonasi”
4. “Xurosoniy afsonasi va xalifaning aldangani”
5. “Benavo novvoy afsonasi va o‘g‘li toleyiga uning boyigani”
6. “Hirmis so‘zini yetmish hakim inkor etgani va halok bo‘lgani”
7. “Aflotun Arastuga tanbeh qilib, cholg‘u soz yaratgani”
8. “Uzuk va cho‘pon hikoyati”

“Iqbolnoma”da Iskandarning hakimlar bilan suhbatlari, hakimlar xiradnomasi va hakimlarning hayoti xotimasida ibratomuz xulosalarga kelinganini kuzatamiz. Iskandar turli soha olimlari bilan inson va koinot, obyektiv borliq, ijtimoiy hayot hamda ilohiyot xususida savol-javob qiladi. Iskandar yetti faylasuf — Balinos, Suqrot, Arastu, Falotun, Volis-u Farfuriyus, Ruhuludus va Hirmisi valiyilar bilan olamning yaratilishi hamda turli mavzularda majlislar tuzadi.

Albatta, haqiqiy olim va faylasuflar davrasi ilm nuri bilan charog‘on bo‘ladi. Ularning davrasini shoir shunday ta‘riflaydi:

*Yetti pargor edi shoh tegrasida,  
Ul esa nuqtadek ilk o‘rtasida.  
Ajab davra edi, shu kuchli porloq,*

*Kibrdan xoli-yu, bodadin yiroq...*

Shoir ilm ahlining doimo kibrdan va bodadan yiroq bo'lishini, bunday davralarni ilm nuri yoritib turishini mana shunday misralarda tasvirlab beradi. Baytda tashbeh san'atidan foydalanib, shohni nuqtaga o'xshatadi. Shoir tomonidan shohning olimlar o'rtasida tasvirlanishi uning doimo ilm-ma'rifatga tashnaligidan dalolat beradi. Nizomiy Ganjaviy dostonida alohida ilm haqida bob ajratmaydi, ammo dostonning umumiy sujeti bilan birgalikda ilm bahsi olib boriladi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, keyingi xamsanavislar, xususan, Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida ilmga alohida bob ajratadi va ilmning mohiyati va foydalarini hikoyatlar misolida ochib beradi. Abdurahmon Jomiyda esa dostonning boshidan oxiriga qadar ilm, ma'rifat g'oyalari ustunlik qiladi. Nizomiy Ganjaviy dostonning muqaddimasida Iskandarni avval ilm-u hunar o'rganib, keyin ota taxtini egallaganligini, olim-u fuzalolarni atrofiga yig'ganligini bayon qiladi:

Qaror bo'ldi, shoh oldida bardavom,  
Ilmi ila har kimsa tutgay maqom.  
Ilmga zo'r berdi sohibi davlat,  
Olimlar etdilar ilm-u fanga jahd.  
Yuzlarni ilm-la ravshan etdilar,  
Dillarni ilm-la gulshan etdilar.  
Ul shohi donishyor himmati bilan  
Yunonning shuhrati yuksaldi baland.  
Garchi toj-u taxti cho'kdi, yo'q bo'ldi,  
Nomi ma'rifatda, ilmida qoldi.

Sharqda qadimdan ilm-u ma'rifatga e'tibor kuchli bo'lganligini adiblarning asarlarida pandnoma ruhining ustunligi, ilm, ma'rifat, saxovat, shijoat, do'stlik, muhabbat kabi tushunchalarga urg'u berilganligi bilan baholashimiz mumkin. Nizomiy Ganjaviy garchi Iskandar haqida doston yozishni maqsad qilsa-da, uning ikkinchi qismini shaxs kamoloti uchun xizmat qiluvchi yuksak g'oyalar targ'ibiga bag'ishlagani va "Iqbolnoma" deb nomlagani Sharq adabiyotiga xos an'anaviylikning isboti hisoblanadi. Yuqoridagi parchada shoir shohning himmati tufayli Yunonistonning shuhrati yuksaldi, deydi hamda inson nomi yaxshilik, ilm, ma'rifat tufayli abadiy bo'lishini, garchi toj-u taxti yo'q bo'lsa-da, ilmi va ma'rifati tufayli nomi tarixda abadiy qolganligini yozadi.

Dostonda keltirilgan "Chiniy kanizak-la Arshimedis afsonasi" hikoyatida ilmning targ'ibini ko'rishimiz mumkin. Hikoyatda keltirilishicha, ilmi va salohiyati bilan barchani lol qoldirgan Arshimedis ishq tufayli ilmni tark etadi. Arshimedis ilimli shaxs bo'lganligi bois Arastu ham unga o'g'lidek muomala qilar, undan tashqari to'qson to'qqiz shogirdi bo'lsa ham, u kelmasa ilm o'rgatgisi kelmas edi. Ammo Iskandar Rumga qaytib kelgach, uning qobiliyatini ko'rib, devoni xosni topshiradi va Chiniy kanizakni unga tuhfa etadi. Natijada Arshimedis devon ishlarini ham, ilmni ham unutadi va kunlarini Chiniy kanizak bilan o'tkaza boshlaydi. Bunga chora izlab, Arastu bir dori ixtiro qiladi va dori yordamida kanizak vujudidan xiltni ayirgach, u ko'rimsiz holga kelib qoladi. Bu holdan hayratga tushgan shogirdiga chiroyning o'tkinchi ekanligini, insonga hayotda bir jufti halol yetarli ekanligini, inson vaqtini ilm o'rganishga bag'ishlashi lozimligini uqtiradi. Shogird afsus-nadomat chekib, uzr so'rab, yana ilm olishga kirishadi. Ammo vaqt o'tishi bilan kanizakka yana husn qaytib keladi. Arshimedis esa ilmni tashlab, aysh-u ishrat qilishda davom etadi. Buni ko'rgan Arastu endi hech nima demaydi. Ikki-uch yil o'tishi bilan parichehrani chiroy tark etadi va o'zi ham bu dunyodan o'tadi. Shoir bu bilan inson umrni ilm o'rganish bilan o'tkazishi lozimligiga ishora qiladi va hasbi hol tarzida o'zining ham go'zal yori bo'lib, uning dostonlar yozilayotgan davrda bu dunyoni tark etganini aytib o'tadi.

"Shirin" halvosini pishirganim on  
Shirin halvoyimdin ayrildim hamon.  
"Layli" ganji uzra tiklabon hisor,  
O'zga bir gavharim ayladim nisor.[2,70]

Bizningcha, shoirning ikki xotini bo'lib, birinchi xotini "Xusrav va Shirin" dostoni yozilganda vafot etgan va ikkinchi xotini ham "Layli va Majnun" dostoni yozilganda bu dunyoni tark etgan. Shoir o'zinning shuncha dardim turib, Rus-u Rum haqida yozganim nimasi, deya o'ziga ta'na qiladi. Ammo behuda g'am chekkandan ko'ra doston yozib, ko'nglini xush aylashni ma'qul ko'radi. Zero, insonning o'tganlar ketidan g'am chekib, afsus-nadomat chekkanidan ko'ra yaxshi va foydali mashg'ulot topib, yashashda davom etgani foydaliroq.

"Iqbolnoma"da tarixiy shaxslar hayoti bilan bog'liq Moriyayi qibtiya rivoyati ham mavjud bo'lib, bu rivoyatda shoir ilmning qudrati haqida fikr yuritadi. Ya'ni, Moriyayi qibtiya urushda yengilib, Iskandar qo'lga asir tushadi va Arastuga kanizak etib beriladi. Ammo Arastuning butun xayoli ilmida bo'lgani bois

kanizakka e'tibor bermas, agar qo'liga suv qo'ysa ham, faqat qo'liga tushayotgan suvga qarar edi:

Ustod ko'p parhezkor tutardi o'zni,  
Moriya yuz ochsa, yumardi ko'zni.  
Qo'liga suv qo'ysa, boqmasdi unga,  
Boqardi kaftiga to'kilgan suvga.[2,72]  
Moriya bundan ta'sirlanib, ilm o'rganmoqqa kirishadi:  
Ilmga yopishdi, ilmga tanho,  
Ilmga yetmoqni etdi muddao.  
Arastuyi dono o'shal dilnavoz,  
Aqliga ilm din eshik ochdi boz.  
Base durru gavhar nisor ayladi,  
Necha aytilmagan sirni so'yladi.[2,74]

Ilmni puxta egallagach, otasining mulkini qayta bunyod etmoqchi bo'ladi. Buning uchun xazina kerak edi. Shu bois Arastu unga kimyo ilmini o'rgatadi. Shu orqali Moriya mol to'plab, otasining mamlakatini qayta qo'lga kiritadi. Bu afsona Arshimedis va Chiniy kanizak haqidagi afsonadan keyin keltirilgan bo'lib, agar insonning ilmga bo'lgan e'tiqodi kuchli bo'lsa, uni hech qanday chiroy yenga olmaydi, degan xulosa kelib chiqadi. "Iqbolnoma"da hikoyatlar Iskandar sarguzashti bilan bilvosita bog'langan. Moriyayi qibtiya mamlakatni bunyod etgach, Iskandar bundan g'azablanib, u yurtga bostirib bormoqchi bo'ladi. Arastu Iskandar huzuriga kirib, malikaning bir vaqtlar uning qo'lida ta'lim olganini, uning ilmi ekanligini aytgach, podshoh Moriyayi qibtiyaga elchi yuborib, xiroj berib turishini aytadi va malika buni xursandchilik bilan qabul qilib, o'z yurtini dushmanidan asrab qoladi.

"Iqbolnoma"da ilm xususidagi hikoyatlardan yana biri uzuk topib olgan cho'pon haqida bo'lib, hikoyatda Iskandarning olimlar bilan ilm bahsi xususida so'zlashgani bayon qilinadi. Shunday suhbatlarning birida Iskandar Aflotun yaratgan cholg'u sozini eshitgach: "Dunyoda sizdan bilimlir oq olim o'tganmi?" – deydi. Hakim esa dunyo shuncha ko'p donishmandlarni ko'rganki, hozirda ular bilgan ilmning mingdan birini ham bilguvchilar yo'q. Masalan, shulardan biri haqida hikoya qilib beray, deya uzuk va cho'pon hikoyatini keltiradi. Kunlardan bir kuni cho'pon bir g'orning oldidan o'tib ketayotganida bir mis otni ko'rib qoladi, uning bir tuynugi bo'lib, quyosh nuri tushgan paytda ichida nimasi borligi ko'rinib turar edi. Qarasa, ichida bir mayit bo'lib, uning barmog'ida uzugi yaltirab turar edi. Cho'pon uning uzugini olib, barmog'iga taqib oladi va ortiga qaytadi. Xojasining oldiga borib, uzukni ko'rsatmoqchi bo'lganida u: "Nega bir g'oyib bo'lib, yana paydo bo'lyapsan?" deb so'raydi va cho'pon shunda qo'lidagi uzukni bir tepaga, bir pastga aylantirayotganini payqab qoladi. Tog'ga borib, uzukni yana sinab ko'radi, uning sehrililigiga ishonch hosil qilgach, shahar kezib maqsadlariga yetadi. Kunlardan bir kuni podshoh huzuriga borib, o'zini payg'ambar deb tanishtiradi va unga imon keltir, deb buyuradi. Podshoh imon keltiradi, xullas, cho'ponning dovrug'i oshib, oxir-oqibat podshohlik taxtini ham egallaydi. Aflotun bu hikoyatni keltirar ekan, o'sha uzukni yasagan ilm egalari qanday tilsim qilganlar? Buni bilishga qanchalik urinmay, bu sirni ocha olmadim, deydi. Nizomiy Ganjaviy ushbu hikoyatni keltirish orqali sehrarlikni, cho'ponning ishlarini targ'ib qilmaydi, balki o'sha uzukni yasagan olimning ilmini bayon qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Nizomiy Ganjaviyning "Iskandarnoma" dostoni Iskandarning taxtga o'tirishi, mamlakat boshqaruvi, yurishlari, shuningdek, ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarini yoritib beruvchi asar hisoblanadi. Dostonning birinchi qismida Iskandarning jahongirlik ishlari bayon qilingan, ikkinchi qismi esa shohning ilm-ma'rifat, saxovat, himmat masalalarida yetti olim bilan qurgan suhbatlari mazmuniga bag'ishlangan. Dostondagi hikoyatlarda ilm-fan o'rganishga, adolatli va saxovatli bo'lishga, aql bilan ish yuritishga da'vat mavjud.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nizomiy Ganjaviy. Xamsa (forsiydan Olimjon Bo'riyev tarjimai). – Toshkent: Istiqlol nuri, 2016.
2. Shayx Nizomiy Ganjaviy. Iqbolnoma (forschadan Jamol Kamol tarjimai). – Toshkent: Extremum-Press, 2017.
3. Komilov N. Xizir chashmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – 320 b.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 2-jild (XV asrning ikkinchi yarmi). – Toshkent: Fan, 1977.
5. Tohirov S.Q. Temuriylar davrida xamsanavislik: monografiya. – Samarqand, 2020. – 23 b.
6. Otayarova U.B. The Role of Traditionalism and Literary Influence in the Epics "Saddi Iskandari" and "Khiradnomayi Iskandari" // Turk Kulturu ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi. – 2026. – No. 117. – P. 617–635.
7. Otayarova U.B. "Xamsa"larning so'nggi dostonlarida ilm-ma'rifat talqini // Alisher Navoiy xalqaro jurnali. – 2026. – Vol. 6. – Issue 1. – B. 79–84. DOI: 10.5281/zenodo.19412128.